

XORIJIY DAVLATLARDA TANKCHILARNI O‘QITISH

Abdullaev Umarbek Ibragimovich
Chirchiq OTQMBYu qurollanish va
otish kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Hozirgi murakkab davrda jahonning barcha davlatlari harbiy ta’limga alohida e’tibor qaratmoqda, shu jumladan tank ekipajlarini o‘qitishga ham. Rivojlangan davlatlar Qurolli Kuchlari qurolli mojarolar, o‘quvlar va o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida o‘qitish tizimini bir necha bor isloh qilishdi.

Kalit so‘zlar: Tankchi, tank ekipaji, o‘qitish bosqichi, zirhli tank maktabi, ekspluatatsiya, harbiy xizmatchi, virtual trenajyor, texnik xizmat ko‘rsatish, o‘quv markazi.

TRAINING OF TANKERS IN FOREIGN COUNTRIES

Abstract: In today’s difficult times, all countries of the world pay special attention to military training, including training tank crews. The Armed Forces of developed countries have repeatedly reformed the teaching system as a result of armed conflict, training and research.

Keywords: Tank, tank crew, training stage, armored tank school, exploitation, military officer, virtual train, maintenance, training center.

Dunyo shiddat bilan o‘zgarayotgan, mintaqalar va davlatlar o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy kurashlar tobora keskinlashayotgan bir sharoitda tabiiyki harbiy mojarolar, har xil turdagi harbiy xavf-xatarlar ham dolzarb mavzuga aylanib boraveradi. Bu esa o‘z navbatida ana shu xatarni yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan bosqinchi, yovuz kuchlarga qarshi munosib kurasha olish imkoniyatini beradigan mukammal harbiy texnika va qurol-yarog‘larni puxta o‘rganish, yaratish va ularning turlarini takomillashtirib borishga bo‘lgan ehtiyojlarni yuzaga keltiradi.

Jangovar mashinalar ekipajlarini tayyorlash sifati muammosi bugun paydo bo‘lgan emas va hatto kecha ham emas: u barcha davrda eng muhim sanalib kelgan.

Xozirgi murakkab davrda jahonning barcha davlatlari harbiy ta’limga alohida e’tibor qaratmoqda, shu jumladan tank ekipajlarini o‘qitishga ham.

Tankchi mutaxassislarini o‘qitishni rivojlangan davlatlar misolida ko‘ramiz.

AQSH armiyasi tankchilari

AQSH armiyasi tankchilari maktabi quyidagi bo‘linmalarni o‘z ichiga oladi:

192-piyoda brigadasi (to‘rtta o‘quv batalyonidan tashkil topgan);

194-tankchilar brigadasi (uchta o‘quv batalyonidan tashkil topgan);

316-kavaleriya brigadasi (uchta o‘quv batalyoni, tank qo‘shinlari ofitserlarini tayyorlash bazaviy kursidan tashkil topgan);

AQSH zirhli tank maktabining vazifasi qo‘shma shtatlar armiyasining ofitser, serjant va askarlarni o‘qitishdan iborat. O‘qish kursiga quyidagilar kiradi: texnikalarni ekspluatatsiya qilish, taktika va zirhli tank qo‘shinlari va texnikalariga texnik xizmat ko‘rsatish. O‘rganishda M1 Abrams asosiy tanki va Bradley jangovar mashinasidan foydalanishadi, bundan tashqari shaxsiy qurol va turli xil jihozlarda ishlashni o‘rgatishadi. Abrams tanklari bilan birgalikda ishlashni o‘rganish uchun amerika dengiz piyodalari ham maktabga tashrif buyurishadi.

O‘qitishga quyidagilar kiradi: zirhli tank ofitserlari uchun baza kursi – bu kavaleriya va zirhli texnika mutaxassislarining ikkinchi va birinchi leytenantlari uchun ko‘nikma va bilimlarni o‘rgatadigan kirish kursi hisoblanadi. Bu ofitserlar, AQSH harbiy akademiyasi bitiruvchilari, shuningdek ROTC dasturi bo‘yicha o‘qitilgan studentlar va maktabning potoki ofitserlikka nomzodlar sanaladi. Ular harbiy bazaviy ko‘nikma va bilimlar, manyovrlanish taktikasi, strategiya, otish, moddiy-texnik ta‘minotni tashkillashtirish va rejalashtirish bo‘yicha o‘n sakkiz xaftalik tayyorgarlikdan o‘tadi.

Kursantlar to‘rtta asosiy dala shug‘ullantiruvchi mashqlaridan iborat vazifalar guruhini o‘rganishi va bajarishi zarur. Birinchi besh kunlik o‘quv kavaleriya manyovrlaridan iborat, ikkinchisi – og‘ir zirhli texnika bilan ishlash, uchinchisi – zamonaviy jangovar sharoitda ishlash. Yakuniy mashqlar - dasturning barcha fanlarini qamrab oladigan tig‘iz o‘n kunlik hisoblanadi. O‘rganuvchilar vzwodda va otryadda har bir vazifani bajarish natijasiga asosan baholanishadi.

Bundan tashqari qo‘shma shtatlarda harbiy akademiyada “tankchi” (zirhli texnika mexanik haydovchisi) harbiy mutahassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan kursantlar uchun, shuningdek tankchi bo‘linmalari harbiy xizmatchilari uchun yangi dastur (DiSTI) joriy qilingan. Ushbu DiSTI dasturi Abrams asosiy jangovar tanki M1A2 SEP v3 modifikatsiyalarining qism va mexanizmlarini virtual o‘rganish imkonini beradi va unga nosozliklarni diagnostika qilish va bartaraf qilish bo‘yicha yo‘riqnoma (DTT) ilova qilinadi.

Amerikaning M1A2 Abrams SEP v3 tankiga texnik xizmat ko‘rsatishni o‘rgatish bo‘yicha dasturi 80 ta texnologik xaritadan iborat 200 ta mashg‘ulotni ko‘zda tutadi. Bunda harbiy xizmatchilar virtual trenajyorida ta‘mirlash va xizmat ko‘rsatish ishlarini amalga oshiradi. Mutahassislarning fikriga ko‘ra, DiSTI dasturi bo‘yicha tahsil olgan harbiy xizmatchilar Abrams tankining yangi modifikatsiyalariga samarali xizmat ko‘rsatishadi.

Xitoy xalq ozodlik armiyasi tankchilari

Xitoy xalq ozodlik armiyasining Benbu tankchilar bilim yurtida zirhli tank qo‘shinlari uchun ofitserlar tayyorlanadi.

Ushbu bilim yurtiga tinglovchilar harbiy xizmatchilar va fuqaro yoshlar qabul qilinadi. O‘qitish 3 darajali tayyorgarlikda olib boriladi:

4 yillik o‘qish muddatli baza kursi;

3 yillik o‘qish muddatli, bunda oliy maxsus ma’lumot beriladi;

2 yillik o‘qish muddatli, bunda o‘rta-maxsus ma’lumot beriladi.

Bundan tashqari bilim yurti bazasida Xitoy xalq ozodlik armiyasi tankchi bo‘linmalari ofitser va serjantlarining malaka oshirish kurslari mavjud.

O‘qitish mobaynida Tip-96, Tip-99 asosiy tanklari va ularning modifikatsiyalaridan foydalaniladi. O‘rganishda maxsus taktik tayyorgarlik, otish tayyorgarligi, zirhli texnika ekspluatatsiyasi, ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish kabi o‘quv fanlari o‘qitiladi.

O‘qitish davomida yoqilg‘i va o‘q-dori sarfini tejash maqsadida tanklardan amaliy otish va haydash mashqlari dastlab o‘quv-dinamik trenajyorlarida va virtual trenajyorlarida olib boriladi. O‘rganuvchilarda zarur ko‘nikma xosil qilingandan keyin jangovar texnikalarga ruxsat beriladi.

Bilim yurtida qo‘mondonlik-o‘quv markazi, o‘quv-laboratoriya korpusi, elektron biblioteka korpusi, trenajyor kompleksi, kutubxona, o‘quv auditoriya va laboratoriyalari mavjud. Hududdan tashqarida poligon, direktrisa va tankodrom joylashgan.

Germaniya Bundesver tankchilari

Bundesver zirhli tank qo‘shinlarining mutahassislarini professional tayyorgarligiga alohida e’tibor qaratadi. Germaniya Qurolli Kuchlari qurolli mojarolar, o‘quvlar va o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida o‘qitish tizimini isloh qildi.

Germaniyada jangovar tayyorgarlik dasturiga asosan harbiy xizmatga yangi kelganlar professional tayyorgarligi ikkita bosqichda umumiy sakkiz xafta mobaynida olib boriladi. Birinchi bosqichda o‘quv bo‘linma tarkibida boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik dasturi bo‘yicha o‘qitiladi. Ikkinchi bosqichda asosiy e’tibor otish tayyorgarligiga qaratiladi. Harbiy xizmatchilar qurol bilan muomalada bo‘lish qoidalari, texnika va qurollarning moddiy qismlari, otish nazariyasini o‘rganishadi. Bosqich yakunida poligonda sinov qabul qilinadi. Sinovlarni muvofaqiyatli topshirgan va o‘zini ijobiy tomondan ko‘rsatgan harbiy xizmatchilarni bilim yurtlari o‘quv markazlariga yakka tayyorgarlik malakasini oshirish kurlariga, doimiy armiya harbiy qismlaridagi o‘quv kurslariga yo‘naltiriladi.

Quruqlikdagi qo‘shinlardagi o‘quv kursi yetti xaftadan iborat. Tank ekipaji tarkibida xizmat qiluvchi harbiy xizmatchilar otish tayyorgarligi, taktik tayyorgarlik va haydash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini takomillashtiradilar. Oxirgi xaftasida harbiy xizmatchilar bilan tank ekipaji tarkibida jangovar vaziyatga yaqinlashtirilgan sharoitda dala mashg‘ulotlarini o‘tkazishadi. Yakunida harbiy xizmatchilar sinov topshiradi va

sutkalik taktik o‘quvida ishtirok etishadi. Bundan keyin harbiy xizmatchilar qo‘shinlarga yuboriladi.

Bundesver tankchilarini amaliy mashq va mashg‘ulotlari Bundesverning Munster shahridagi o‘quv markazida olib boriladi. Bundesver tank ekipajlarining tayyorgariligini dastlab o‘quv mashq vositalarida olib borishga asosiy urg‘u beradi. Mo‘ljalga oluvchilarning tayyorgarligi elektron trenajyorlarda olib boriladi, bu esa o‘quv markazida amaliy o‘tishga ajratilgan vaqtni qisqartirishga imkon beradi.

Xulosa:

Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

dunyoda qurolli to‘qnashuvlar to‘xtamas ekan harbiy mutaxassislarni shu jumlada tankchilarni o‘qitish har doimgidek barcha davlatlarning diqqat markazida bo‘lib qolaveradi;

xorijda tankchilarni o‘quv mashq vositalari (trenajyorlar) orqali o‘rgatish bundan keyin ham uzviy davom ettiriladi va shu orqali o‘q-dori va yoqilg‘i sarfi tejaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Содержание боевой подготовки сухопутных войск армии США [Электронный ресурс] – URL: <http://www.warstar.info/page2.1>.
2. Арфеев В.Ю. Использование компьютерной техники для обучения войск (Зарубежный опыт)/. Военная мысль. – 1997 № 1 (1-2). С. 76-77.
3. Ходовой тренажер для подготовки механиков-водителей Panzer 87 Leopard Fahrschule [Электронный ресурс] http://zonwar.ru/news5/news_html.
4. Норштейн М. Бундесвер – армия профессионалов // «Partner». – 2012. – № 8 (179).
5. <https://topwar.ru>.